

O'RTA OSIYODA XATTOTLIK MAKTABLARINING RIVOJLANISHI

Mamatov Muhammadsolih Islomovich

Oriental universiteti Ta'lim menejmenti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xattotlik, Mavorounnahrda ushbu sohaning o'rta asrlardan buyon tutgan o'rni va uning ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan ustozlar haqida, Toshkent, Samarqand va Buxoro xattotlik maktablari va ularning faolyati borasida so'z yuritilgan.

***Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, Imom Al-Buxoriy, Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Ulugbek, Bobur Mirzo, yetti xat, «nasx» va «ta'liq», Xattotlik, Maktablar, Usmon mus'haflari.*

ABSTRACT

This article talks about calligraphy, the role of this field in Central Asia and our country since the Middle Ages, and the masters who made a great contribution to its development, as well as the calligraphy schools of Tashkent, Samarkand and Bukhara and their activities.

***Key words:** Central Asia, Imam Al-Bukhari, Al-Biruni, Al-Khorazmi, Al-Farabi, Ibn Sina, Alisher Nawai, Mirza Ulugbek, Babur Mirza, seven letters, "naskh" and "taliq", Calligraphy, Schools, Ottoman museums.*

Markaziy Osiyo biz avlodlar faxr bilan tilga oladigan dunyoga ma'lum va mashhur buyuk ajdodlarimiz yetishib chiqqan maskan hisoblanadi. Chunki ushbu muqaddas zaminda Imom Al-Buxoriy, Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Ulugbek, Bobur Mirzo va shu kabi sanab sanog'iga yetolmaydigan buyuk allomalarimiz yashab ijod etgan. Ular qoldirgan ma'naviy meros esa shak-shubhasiz biz uchun qoldirilgan ulkan xazinadir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek «... O'zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to'liq o'rganilmagan, ular olimlar va o'z o'quvchilarini kutib turibdi. Ushbu noyob asarlarda bugungi davr o'rta qo'yayotgan dolzarb muammolarga javob topish mumkin...».¹

¹ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. – Toshkent, 2017-yil dekbar, №258.

Shunday ekan, asrlar davomida saqlanib kelinayotgan ushbu noyob xazina nafaqat buyuk allomalarimizning hikmat nishonasi bolibgina qolmay, balki ular xattotlik va kitobat san'ati namunalari desak, bu ham haqiqat. Albatta mana shu asarlar Sharq xalqlarining uzoq asrlik moddiy-madaniy merosida alohida o'rin egallaydi. Markaziy Os'iyoda Islom dinining qaror topishi bilan arab tili ilm-fan va boshqaruv sohasida asosiy til sifatida qabul qilindi. Bugungi kunga qadar saqlanib kelayotgan xattotlik san'ati tarixi **"hijoziy"**(حجازي) va **"kufiy"**(الكوفي) xatlari bilan boshlangan. Dunyoga mashhur Usmon mus'haflari "hijoziy" xatida ko'chirilgan bo'lsa, Ali (r.a.) davrida Kufada ushbu xatning yangi ko'rinishi – "kufiy" xati paydo bo'ldi va Qur'oni karim nusxalari shu xatda ko'chirila boshlandi. X asrda Bag'dodda yashab, "Xattotlar imomi" unvoniga sazovor bo'lgan Ibn Muqla va uning izdoshi Ibn Bavvoblar yangi – "muhaqqaq", "rayhoniyy", "nasx", "suls", "tavqi" va "riqo" xatlariga asos solib, ularni rivojlantirdilar.

Kitobat ilmi murakkab jarayon bo'lib, unda qog'ozsozlar, bo'yoq tayyorlovchi kimyogarlar, xattotlar, tilla suvi bilan bezovchi muzahhiblar, naqqoshlar, miniatyurachi rassomlar, sahhof – muqovasozlar va boshqa hunarmandlar ishtirok etadilar. Qadimgi qog'ozlarni tayyorlashda, asosan, ipak, tut daraxtining po'stlog'i, zig'ir kabi xomashyolardan foydalanilgan. Yurtimizda tayyorlangan Qo'qon va Samarqand kabi qog'oz turlari yuqori sifatga egaligi bilan alohida ajralib turgan hamda butun dunyoda e'tirof etilgan. Biroq davr o'tishi bilan kitob yaratish jarayoniga zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi natijasida mazkur an'analar yo'qolib bormoqda.

Shu ma'noda, o'z davrida xattotlik san'atining yirik markazlaridan biri bo'lgan O'zbekistonda ushbu san'at an'alarini tiklash, O'zbekistonning kitobat san'ati rivojiga qo'shgan hissasini ko'rsatib berish, bu orqali yurtimiz nomini jahonga yanada keng tanitish dolzarb vazifa hisoblanadi. Zero, bugun milliy-madaniy qadriyatlarining tiklanishi hamda uzoq o'tmishda yashab o'zlarining sermahsul ijodlari bilan turli sohalarga bag'ishlab ko'plab asarlar yozib qoldirgan ajdodlarimizning bebaho madaniy meroslarini har tomonlama chuqur o'rganish eng muhim masalalardan biriga aylandi.

Xattotlik - (arab. — husnixat yozuvchi), kalligrafiya — yozuv (xat) san'ati, kitob ko'chirish hamda me'moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitoblarini yaratish kasbi, yozuvning paydo bo'lishi natijasida yuzaga keldi. Ayniqsa, arab yozuvining keng tarqalishi tufayli X-asrning rivojlanishi jadallashdi. Sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda kitob bosish vujudga kelguniga qadar qo'lyozma kitob tayyorlash, ularning nusxalarini ko'paytirish (matn ko'chirish) bilan xattotlar shug'ullangan.

Jumladan, temuriy Shahzoda Boysung'ur Mirzo (1397—1433) Hirotda tashkil

qilgan kutubxonada musavviri, naqqosh va boshqa ustalar bilan bir qatorda 40 dan ortiq xattotlar qo'lyozma kitoblar tayyorlash, yaroqsiz holga kelganlarini ta'mirlash bilan mashg'ul bo'lgan.

Shuningdek, xattotlik tarixida movarounnahrlik xattotlarning ham o'ziga xos o'rni borligini takidlash lozim. XV asr boshlari, ya'ni Temuriylar davrida Mirali Hiraviy va Mirali Tabriziylar Samarqand diyorida "nasta'liq" xatini kashf etishga sazovor bo'ldilar. Ma'lum vaqt o'tib, mazkur xat butun islom olamiga keng tarqaldi va eng ko'p qo'llaniladigan xat turlaridan biriga aylandi. Shu o'rinda, hozirgi Eron va Pokiston davlatlarining alifbosi aynan nasta'liq xatiga asoslanganini ta'kidlash zarur.

Bundan tashqari o'rtaslar Buxoroda shakllangan, Buxoro miniatyura maktabi miniatyuraning rivojlanish davri Buxoroda Shayboniyxonlar, Ashtarxoniylar hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Hirot miniatyura maktabi ta'sirida rivojlangan Buxoro miniatyura maktabi dastlab Buxoroga kelgan Hirotminiatyura maktabi vakillarining ijodi bilan bog'liq bo'lgan va mahalliy badiiy an'analar ta'sirida shakllanayotgan mustaqil uslubni aks ettirgan oqimlar ko'rinishida bo'lib 1550-yillar o'rtalaridan mustaqil rivojlangan. Yana bir xat turi XVI asrda buxorolik xattot Mir Ubayd Buxoriy "nasxi buxoriy" xatiga asos soldi.¹ Mazkur xat turi yaqin davrlargacha Mus'haflar ko'chirishda keng qo'llanib kelindi. Shuningdek, mashhur xattotlardan biri Said Qosim bitta guruch donasiga g'ubor xatida «Ixlos» surasini yozgan va shu xatning ixtirochisiga aylangan. Tavqi' xatining yarmi tekis, yarmi yumaloq chiziqdan tashkil topgan.

Hijoziy xatiga o'xshashligi bor. O'tmishda qozilar va hokimlar hujjatlarni aynan tavqi' xati bilan imzolagan bo'lib, idora va mahkamalarda farmonlarga, maktub va qo'lyozmalarga tavqi' uslubida imzo qo'yilgan. Riqo' xatining xususiyatlaridan biri, unda aksariyat harflar bir-biriga qurama qilib yoziladi. Riqo' «ruq'a» so'zining ko'pligi bo'lib, «qog'ozparchasi» degan ma'noni anglatadi. Ta'liq xati aslida, riqo'dir. Uning har xil shakllarga solib yozilishidan ta'liq xati yuzaga kelgan. Xoja Tojiddin Sulaymon va Abul Oliy ismli xattotlar bu xatga asos solganlar.

Shuningdek, yana bir xat asoschilaridan biri gozal xushnavis Bobobek Ishtabirni «Terma dudnavis» deb atashganligi tarixiy manbalarda keltirilgan. Sadr-I Ziyoning tarificha: «Oziga xos bir raviyani ixtiro qilib, talim berar edi. Juda chiroyli va bagoyat yaxshi xattotlarga margub (yoqimli) tarzda yozardi».²

Xorazm xattotlik maktabi. Xorazm xattotlik san'ati faqat XVIII asrning boshlaridagina mustaqil maktab sifatida shakllangan. Ayniqsa, XIX asrga kelganda Muhammad Rahim I va Muhammad Rahim II zamonasida Xorazm xattotlik maktabi

¹ Murodov A., O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan, Toshkent: Fan, 1971. –B.48.

² Muhammad Sharifjon Sadr-I Ziyoy. Majmua. // Qolyozma. Oz FA ShI, 2193/XXIII. 255a.

taraqqiy etib, xattotlar bilan bir qatorda, u yerda kitobat ishlari ham rivoj topadi. Nasta'liq xati yetakchi o'rinni egallaydi. Bu yerda husnixat taraqqiyoti ma'lum darajada toshbosma orqali kitob nashr qilish bilan ham bog'liq bo'lgan.

Farg'ona (Qo'qon) xattotlik maktabi. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrda Qo'qon xonligida madaniy hayot, san'at va adabiyot ravnaq topdi. Farg'ona shaharlarida qo'qonlik mashhur xattot Muhammad Sharif Dabir boshliq juda ko'p xattotlar yetishadi. Muhammad Alixon, Muhammad Yodgor Xo'qandiy, Abdullatif Hisoriylar mazkur maktabning shakllanishi va taraqqiyotiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar. Qo'qon xattotlik maktabida ham nasta'liq xati yetakchi o'rinni egallagan. Bu maktabning boshqa xattotlik maktablaridan farqli jihati shundaki, bu yerda badiiy asarlarni kitobat kilishda shikastiy xati ham keng iste'molda bo'lgan.

Samarqand xattotlik maktabi. Samarqand xattotlik maktabi ham ko'plab zarrinqalam xattotlarni yetkazgan bo'lib, Muhammad Murod Samarqandiy, Mir Rajab Samarqandiy va tarix sahifalarida XVII asrlarda nomlari muhrlanib qolgan boshqa xattotlar shular jumlasidandir.

Toshkent xattotlik maktabi XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, ma'lum iqdisodiy va siyosiy sabablarga ko'ra, Toshkent ham madaniy markazga aylana boshlaydi. Maktab, maorif, sanat va adabiyotning rivoj topishi bu yerda ham o'ziga xos yo'lda husnixat bilan shug'ullanuvchi san'atkor xattotlarning yetishib chiqishiga zamin hozirlaydi. Toshkent xattotlari O'rta Osiyoning Shohmurod Kotib boshliq oltinchi husnixat maktabini tashkil qiladi. Toshkentda ham husnixat taraqqiyoti ma'lum darajada toshbosma orqali kitob nashr qilish bilan bog'liq bo'lgan. Sanab otilganlar orasida badiiy jihatdan yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarila olganlari Hirot, Buxoro va qisman Farg'ona (Qo'qon) husnixat maktablaridir.¹

Arab alifbosi teran tafakkur, mantiqiy mushohada, yuksak did va nafosatni talabetish bilan birgalikda uquv va ihofizani taqozo etuvchi xotira, topishmoq yozuvi hamdir. To'g'ri o'ylab fikr yurita olmasangiz, biron matn tugul, biron so'zni ham to'g'ri o'qiy olmaysiz. Unda naqsh, riyoziyot, ya'ni matematika (abjad hisobi), badiiy-tasviriy vositalar (harfiy va lafziy san'atlar), rasm barchasi mujassam.

Xattotlar texnik vazifalardan tashqari o'z yozuv uslublarini ham ishlab chiqarishga intilganlar. Masalan, XII asrgacha xattotlar hayotida "Kufiy" xati uslubi keng o'rin oldi. Bu uslub asosida arab yozuvining quyidagi olti xil asosiy uslublari maydonga keladi:

1. **Suls xati** - bu xatning to'rt baxrasi tekis, ikki baxrasi yumaloq shaklda yozilgan.
2. **Nasx xati** - bu xatning ixtirochisi mashhur xattot Ibn Muqla'

¹ Abdulg'afur Razzoq Buxoriy. Husnixat durdonalari (Nastaliq xati qoidalari). Toshkent: Movarounnahr, 2008. –B.6.

hisoblanadi.

3. Muhaqqaq xati - bir bo‘lak qismi tekis bo‘lib, qolgan bo‘laklari yumaloq shaklda yoziladi.

4. Rayxoniy xati – muhaqqaqdan kelib chiqqan bo‘lib uning ixtirochisi Ibn Bavvobdir.

5. Tavqe xati - yarim tekis yarim yumaloq chiziqdan tashkil topgan.

6. Riq’o xati -ko‘pchilik harflar bir-biriga qurama qilib yoziladi.

Mashhur xattotlardan biri Said Qosim bitta guruch donasiga g‘ubor xatida «Ixlos» surasini yozgan va shu xatning ixtirochisiga aylangan. Tavqi’ xatining yarmi tekis, yarmi yumaloq chiziqdan tashkil topgan. Hijoziy xatiga o‘xshashligi bor. O‘tmishda qozilar va hokimlar hujjatlarni aynan tavqi’ xati bilan imzolagan bo‘lib, idora va mahkamalarda farmonlarga, maktub va qo‘lyozmalarga tavqi’ uslubida imzo qo‘yilgan. Riqo‘ xatining xususiyatlaridan biri, unda aksariyat harflar bir-biriga qurama qilib yoziladi. Riqo‘ «ruq’a» so‘zining ko‘pligi bo‘lib, «qog‘oz parchasi» degan ma’noni anglatadi. Ta’liq xati aslida, riqo‘dir. Uning har xil shakllarga solib yozilishidan ta’liq xati yuzaga kelgan. Xoja Tojiddin Sulaymon va Abul Oliy ismli xattotlar bu xatga asos solganlar.

Xat ilminig yirik ustozlari kotiblarga qarata «Sen harflarni emas, ular seni tanlaydilar»,–deyisharkan. Demak, xattotning xatida uning o‘zligi, didi, tabiati va tiynati aks etadi.

Xulosa qilib aytganda, dunyodagi barcha muqaddas kitoblar, qomusiy, tarixiy, ilmiy, adabiy, ma’rifiy asar va to‘plamlar mana shu xattot (kalligraf)-larning sermashaqqat mehnatlari evaziga bizgacha yetib kelgan, nodir merosimiz asrlar osha avloddan- avlodga o‘tib, o‘lmagan. Ustozlar qalamiga mansub har bir qolyozma asar ota mahorat bilan gozal xat bilan ishlanganki, ushbu qo‘lyozmani korib hayratga tushasiz va ushbu xatdan oladigan zavqni tasvirlab bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulg‘afur Razzoq Buxoriy. Husnixat durdonalari (Nastaliq xati qoidalari). Toshkent: Movarounnahr, 2008. 7,5 b.t.
2. Murodov A., O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan, Toshkent: Fan, 1971. 10.b.t.
3. Muhammad Sharifjon Sadr-I Ziyo. Majmua. // Qolyozma. Oz FA ShI, 2193/XXIII. 255a.
4. Letter Arts Review; Propfe 2005; Geddes and Dion 2004 jurnalining asl nusxasi.